



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 /ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozo Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozo Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин кизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahoyevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149
41	SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Djumaniyazov Shavkat Raximovich</i>	151
42	O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matkarimova Iroda Muxtorovna</i>	155
43	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI <i>Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna</i>	159
44	O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI <i>Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich</i>	162
45	O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRATEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI <i>Xasanov Umidjon Yusupovich</i>	167
46	CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN <i>Olimjonov Abbasjon Olimjonovich</i>	170
47	ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА <i>Холбаева Сабина Рустамовна</i>	173
48	TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI <i>Jalolov Otabek Oybek o'g'li</i>	177
49	MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOIIY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI <i>Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi</i>	181
50	KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI <i>Aripov Oybek Abdullayevich</i>	185

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI

Aripov Oybek Abdullayevich

Namangan davlat texnika universiteti. «Iqtisodiyot» kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori
e-mail: oybekaripov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda «yashil iqtisodiyot» tamoyillarining ahamiyati tahlil qilinadi. Resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, ekologiya.

Abstract: This article analyzes the importance of the principles of the "green economy" in increasing the competitiveness of small businesses and entrepreneurs. It covers the issues of increasing economic efficiency through the efficient use of resources, ensuring environmental sustainability, and introducing energy-saving technologies.

Keywords: green economy, small business, private entrepreneurship, competitiveness, sustainable development, energy efficiency, ecology.

Абстрактный: В данной статье анализируется значение принципов «зеленой экономики» для повышения конкурентоспособности малого бизнеса и предпринимателей. Рассматриваются вопросы повышения экономической эффективности за счет рационального использования ресурсов, обеспечения экологической устойчивости и внедрения энергосберегающих технологий.

Ключевые слова: зеленая экономика, малый бизнес, частное предпринимательство, конкурентоспособность, устойчивое развитие, энергоэффективность, экология.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotida ekologik muammolarning kuchayishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati hamda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini – “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini shakllantirdi. Mazkur konsepsiya iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy farovonlikni oshirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlarni rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, global bozorlarda ekologik standartlar va “yashil” mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishi mahalliy tadbirkorlik subyektlaridan energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik boshqaruv tizimlarini rivojlantirishni talab etmoqda. Bunday yondashuv nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, balki mahsulot sifati va eksport salohiyatini oshirish orqali korxonalarining bozor ustunligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bois, kichik biznes va tadbirkorlik raqobatbardoshligini oshirishda yashil iqtisodiyot tamoyillarining nazariy asoslarini o'rganish, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda amaliy ahamiyatini baholash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari mamlakatda yashil tadbirkorlikni rivojlantirish, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi kichik biznes va tadbirkorlik raqobatbardoshligini oshirishda yashil iqtisodiyot tamoyillaridan

foydalanishning nazariy asoslarini tahlil qilish, ularning iqtisodiy mazmuni, asosiy yo'nalishlari va raqobat ustunligini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Natijada yashil iqtisodiyot tamoyillarini kichik biznes faoliyatiga integratsiya qilishning nazariy modeli hamda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillar asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida xalqaro ilmiy doiralarda keng o'rganilmoqda. Mazkur yondashuv iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy farovonlikni oshirishni nazarda tutadi. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ekspertlari yashil iqtisodiyotni inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirishga xizmat qiluvchi, shu bilan birga ekologik xatarlar va resurslar tanqisligini kamaytiruvchi iqtisodiy tizim sifatida ta'riflaydilar [5].

Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faolligini rag'batlantirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirishi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv tadbirkorlik sub'ektlarining ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, energiya va resurslar sarfini kamaytirish hamda ekologik toza mahsulotlar bozorida yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi [6].

M. Porter va K. van der Linde tomonidan ishlab chiqilgan «ekologik innovatsiyalar va raqobatbardoshlik» nazariyasiga ko'ra, ekologik talablarning kuchayishi korxonalarini innovatsiyalarga undaydi va natijada ularning bozordagi ustunligini ta'minlaydi. Mualliflar atrof-muhitni

muhofaza qilishga qaratilgan investitsiyalar korxonalar uchun qo'shimcha xarajat emas, balki uzoq muddatli raqobat afzalligining manbai ekanligini asoslab berganlar [7].

Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash masalalari J. Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasi bilan ham uzviy bog'liq hisoblanadi. Uning fikricha, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi innovatsiyalar bo'lib, ekologik texnologiyalarni joriy etish ham tadbirkorlik sub'ektlarining bozordagi mavqeini mustahkamlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa yashil innovatsiyalar mahsulot sifatini oshirish, resurs tejamliligini ta'minlash va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishi qayd etilgan [8, 9].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida kichik biznes sub'ektlarining faoliyatini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik menejment tizimlarini joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik raqobatbardoshligini oshirishda yashil iqtisodiyot tamoyillaridan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari hamda ularning amaliyotdagi ta'sir mexanizmlari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. [10].

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari raqobatbardoshligini oshirishda yashil iqtisodiyot tamoyillarining o'rni, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi [2, 4].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods). «Yashil iqtisodiyot» – bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtiruvchi rivojlanish modelidir. Uning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- energiya samaradorligini oshirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish;
- chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash;
- ekologik toza texnologiyalarni joriy etish.

«Yashil iqtisodiyot» tamoyillarini amaliyotga joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni taminlashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida energiya tejamlor texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llash hamda ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish korxonalarining xarajatlarini kamaytiradi va raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan oqilona foydalanish atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi hamda barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun muhim asos yaratadi. Natijada «yashil iqtisodiyot» tamoyillari kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faolligini kuchaytirib, ularning ichki va tashqi bozorlardagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur tamoyillar iqtisodiy subyektlarga uzoq muddatli barqaror rivojlanish imkonini beradi.

Ma'lumki, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning eng faol va moslashuvchan segmenti hisoblanadi. Ular:

- innovatsiyalarni tez joriy etadi;
- resurslardan samarali foydalanishga moyil;
- bozor talablariga tez moslashadi.

Shu sababli kichik biznes subyektlarida «yashil iqtisodiyot» tamoyillarini joriy etish yirik korxonalarga nisbatan tezroq va samaralirorq amalga oshirilishi mumkin. Ayniqsa, energiya tejamlor texnologiyalar, ekologik toza ishlab chiqarish usullari hamda raqamli innovatsiyalardan foydalanish kichik biznesning xarajatlarini kamaytirib, mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi. Bu esa ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish, eksport salohiyatini oshirish va bozorda mustahkam o'rin egallashiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik biznes sub'ektlarida ekologik mas'uliyatning shakllanishi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

¹ Muallif ishlanmasi.

Agar kichik biznes sektorida «Yashil iqtisodiyot» tamoyillari qo'llanilsa, u orqali quyidagi iqtisodiy vaziyatlarga erishish mumkin:

- ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi;
- mahsulot sifati va eksport salohiyati oshadi;
- xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlik mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, «Yashil iqtisodiyot» tamoyillarini kichik biznes faoliyatiga joriy etish energiya va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlab, ekologik xavflarni kamaytiradi hamda korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada yangi «yashil» ish o'rinlari yaratiladi, investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari kengayadi va aholining ekologik madaniyati hamda ijtimoiy farovonligi oshadi.


Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarida «yashil iqtisodiyot» tamoyillarini samarali joriy etish uchun kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda ekologik madaniyatni oshirish, xodimlarni barqaror rivojlanish tamoyillariga o'qitish hamda resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ichki siyosatni ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar va xalqaro grantlardan foydalanish orqali yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonini jadallashirish mumkin bo'ladi, bu esa nafaqat atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi, balki korxonalarining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ham ta'minlaydi.

O'zbekistonda «yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish;
- energiya samaradorligini oshirish dasturlari;
- ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kichik biznes uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar ajratilishi ushbu yo'nalishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman, kichik biznesda yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash asosida kichik biznes faoliyatini atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, resurslarni tejab va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yuritishga olib keladi (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznesda «yashil iqtisodiyot» tamoyillarini joriy etish mexanizmi¹

Ushbu 1-rasmda kichik biznesda «yashil iqtisodiyot» tamoyillarini joriy etishning o'zaro bog'liq mexanizmlari ifodalangan. Bunday asosiy g'oyasi – iqtisodiy faoliyatni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, resurslardan samarali foydalangan holda tashkil etish orqali barqaror rivojlanishga erishishdan iborat. Bunda resurs tejamlorlik, innovatsion texnologiyalar, davlat qo'llab-quvvatlashi va ekologik ta'lim muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Eng avvalo resurslardan samarali foydalanish masalasiga e'tibor qaratilgan. Ya'ni energiya tejamlor texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash hamda suv va elektr energiyasini tejash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ko'zda tutiladi. Shuningdek,

quyosh panellari, LED yoritish texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlarni qo'llash xarajatlarni kamaytirish bilan birga ekologik ta'sirni ham pasaytiradi.

Kichik biznesda «yashil iqtisodiyot» tamoyillarini joriy etish mexanizmining yana bir muhim qismi davlat va moliyaviy qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va subsidiyalar ajratilishi kichik biznes subyektlarining «yashil» texnologiyalarni joriy etishiga rag'bat yaratadi. Bu esa tadbirkorlarning innovatsion faolligini oshirib, ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ta'lim ham mazkur mexanizm faoliyati muhim o'rin egallaydi. Ekologik bilim va madaniyatni oshirish orqali tadbirkorlar hamda aholining atrof-muhitga mas'uliyatli munosabati shakllanadi. Bu jarayon innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash va «yashil menejment» tizimini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Ushbu mexanizm faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. U barcha yo'nalishlarni o'zaro bog'lab turadi. Innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlari modernizatsiya qilinadi, resurs sarfi qisqaradi va mehnat unumdorligi oshadi. Bu esa kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, «yashil iqtisodiyot» tamoyillaridan foydalanish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. U resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shu bois, ushbu tamoyillarni keng joriy etish barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «2019-2030- yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida». 4 oktyabr, 2019. PQ-4477-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishivazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida». 31 may, 2023. PQ-171-son.
3. Yashil iqtisodiyot: Darslik. /A.V.Vaxobov, Sh.X.Xajibakiev va boshqalar. –T.: «Universitet», 2020. -262 b.
4. Hakimov N.H., Abirqulov Q.N., Islomov A.A. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Darslik. –T.: 2007. -209 b.
5. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP. 2011. – 624 p.
6. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. – Washington, DC: World Bank, 2012. – 188 p.
7. Porter M. E., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment–Competitiveness Relationship // Journal of Economic Perspectives. – 1995. – Vol. 9, No. 4. – P. 97–118.
8. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
9. Chen Y.S., Lai S.B., Wen C.T. The influence of green innovation performance on corporate advantage in Taiwan // Journal of Business Ethics. – 2006. – Vol. 67. – No. 4. – P. 331–339.
10. Baratova Dinora Alisherovna. (2026). O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance Market of Uzbekistan, 3(3), 90–91. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/446